

YANG O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM


CONFERENCES.UZ

2023

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN TELEFON

Alexander Graham Bell



TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



AVGUST №55

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
7-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-7**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-7**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 55-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 13 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофик:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

1. Исмаилов Ўсаржон Усубжонович БАДИИЙ МАТНДАГИ АНТРОПОНИМЛАРНИ ТАРЖИМА ҚИЛИШ ТАМОЙИЛЛАРИ.....	7
2. Boymirzayeva Nilufar Anvar qizi HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIGA NEOLOGIZMLARNING TA'SIRI, ISHLATILISH DOIRASI VA QO'LLANILISHI	10
3. Xolboboyeva Aziza Sherboboyevna REKLAMA DISKURSINIG SOSIOLINGVISTIK TABIATI.....	11



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

БАДИИЙ МАТНДАГИ АНТРОПОНИМЛАРНИ ТАРЖИМА ҚИЛИШ ТАМОЙИЛЛАРИ.

Исмаилов Ўсаржон Усубжонович

Наманган муҳандислик технология институти

+998902221595

usarbek@mail.ru

Аннотация: Антропонимлар мураккаб семантик тузилишга, шакл ва этимологиянинг ўзига хос хусусиятларига, тилнинг бошқа бирликлари ва тоифалари билан кўплаб алоқаларга эга. Мазкур мақола антропонимларни таржима қилиш хусусиятлари ва усулларини таҳлил қилишга бағишланган.

Калит сўзлар: Антропоним, таржима, транскрипция, транслитерация.

Антропоним индивидуаллашувнинг энг юқори нуқтасига бадий матнда етади, асар давомида у ўзининг ташқи қиёфасига, ижтимоий мавқеига ва характерига эга бўлади. Шу сабабли таржимашуносликнинг адекватлик ва эквивалентлик каби муҳим тушунчаларини ёдда тутиш зарур. Таржимада исмнинг нафақат ташқи шаклини, балки унинг ички семантик компонентини ҳам сақлаб қолиш керак, бу эса ўз навбатида исмнинг таржима тилида ҳам ўз функцияларини бажаришда ёрдам беради. Ушбу тамойиллардан четга чиқиш асарни нотўғри тушунишга олиб келади.

Антропонимларни таржима қилишнинг турли хил усуллари мавжуд. Транскрипция ва транслитерация энг кенг тарқалган усуллар ҳисобланади, чунки антропонимларда номинатив функция биринчи ўринга чиқади. Бундан кўриниб турибтики, таржиманинг ушбу усуллари антропонимнинг товуш ва тавсифловчи шаклини сақлаб қолиш ва унинг асосий функциясини бажаришига яхши имкон беради. Бироқ, антропонимларни таржима қилиш оддий масала деб ўйламаслик керак. Одатда, юқоридаги таржима усуллари антропонимларни тўғри таржима қилиш учун етарли эмас. Таржима, товушлар ва ҳарфларни шунчаки алмаштириб қўйиш билан таржима муаммосига айланади, исмнинг аслини таржима тилида иложи борича аниқроқ такрорлашга ёрдам берадиган турли хил таржима усулларидан фойдаланиш керак.

Шунингдек реципиентнинг матни тўғри қабул қилишига таъсир қилувчи бир қатор омилларга ҳам эътибор қаратиш лозим. Сифатли таржиманинг муҳим таркибий қисмларидан бири бу таржима қилинаётган антропонимнинг оҳангдорлиги (эвфонияси) бўлиб, таржима тилида номақбул тушунча ва маъно англаб қолмаслиги лозим.

Шекспирнинг сўнгги асарларидан бири бўлган “Қиш эртаги” пьесаси бош қахрамонларидан бирининг исми “Perdita” (лот. *йўқотиш, йўқотилган*), ўзбек ресипиенти учун бу шунчаки хорижий исм, ҳеч қандай ассоциацияларни, яъни шу исм билан боғлиқ тушунча ёки маъно чақирмайди. Рус тилига бу исм “Пердита” деб таржима қилинган (Зимняя сказка. П.П.Гнедич) ва бу русий забон реципиентга номақбул таъсир кўрсатади. Аслиятда бу антропоним чуқур маънога эга ва бу ҳолда транскрипсиядан фойдаланиш ўринли эмас. Лекин айрим манбаларда “Пердита” ўрнига исмнинг семантик калька қўлланилган русча “Утрата” шаклини учратиш мумкин. Бундай ҳолда, исмнинг нафақат ташқи, балки ички шакллари ҳам сақлаб қолиш муҳимдир.

Бир қарашда, антропонимлар таржимаси мутлақо ҳеч қандай қийинчилик туғдирмайдигандек туюлиши мумкин. Шунинг учун, бу жуда шартли равишда таржима деб аталади, чунки улар одатда транскрипция ёки транслитерация қилинади, баъзан эса ҳар иккаласи қоришиб кетади.

Хорижий адабиётларини таржима қилишда таржимонлар кўпинча антропонимларни



тўғри таржима қилиш муаммосига дуч келишади. Муаммо биринчидан, исмга юклатилган (семантик юкламани) маънони имкон қадар аслият матнидаги каби аниқ етказиш бўлса, иккинчидан исмнинг оҳангдорлигидан иборат. Акс ҳолда матннинг аслият тили билан таниш бўлмаган ўқувчи исм ёки фамилияга яширинган маънони йўқотади. Масалан: *Хэвенли (инсон зотидан бўлмаган, пари), Бьюти (гўзаллик, гўзал), Ноубл (олийжаноб, ҳимматли) ва ҳакозо*. Шунинг учун таржимон (ўқувчи) асар ёзилган тил мамлакатининг миллий маданияти билан яхши таниш бўлиши керак. Бу борада таниқли ўзбек таржимашунос олими Ғайбулла Ас-Салом “Таржима имкониятлари фақат таржима усулининг пухталигига эмас, балки ўқувчининг ҳам етуқлигига вобастадир. Мукамал таржима моҳир таржимоннигина эмас, балки баркамол китобхонни ҳам талаб қилади” деган фикрни билдиради [1].

Бундан ташқари, антропонимларни таржима қилиш жараёнида уларга ортиқча зеб бермаслик ва муаллифнинг бадиий мақсадига киритилмаган исмларга маъно бермаслик жуда муҳимдир. Н.К. Гарбовский атоқли отларни ва шу жумладан антропонимларни таржима қилишда юзага келадиган қийинчиликлар ҳақида қўйидагича ёзади: “Атоқли отлар ўзининг ташқи соддалигига қарамай, таржимонларни, таржима тилига ўгириш учун қайси эквивалентни танлаш ҳақида ўйлашга мажбур қилади” [2].

Таржима амалиётида атоқли отларни таржима қилиш учун умумий қабул қилинган катъий қоидалар ҳали ҳам мавжуд эмас. Бундай қоидаларни шакллантириш, ушбу лексик бирликликларни таржима қилишнинг бир қатор қарама-қарши усуллари мавжудлиги билан мураккаблашади.

Бошқа кўплаб таржима масалаларида бўлгани каби, бадиий матндаги образ ёки характер исмини қандай узатилиши кераклиги тўғрисидаги қарорга бир қатор омиллар таъсир қилади. Шу жумладан:

- Матнни қабул қилувчи;
- Мавжуд лингвистик нормалар;
- Матннинг яратилиш даври;
- Исмнинг "образлилик" ва "семантик тўйинганлик" даражаси;
- Бадиий асарнинг характери;
- Муаллифнинг бадиий мақсади ва бошқалар.

Ҳар бир алоҳида ҳолат учун ушбу омиллар ўзига хосдир, бадиий матндаги атоқли отларни юқоридагиларнинг барчасини ва бошқа кўплаб омилларни ҳисобга олган ҳолда таржима қилиш мақсадга мувофиқдир.

Таржима, айниқса, бадиий таржима ўзига хос қийинчиликларга эга эканлигини ҳам унутмаслигимиз керак; таржимон олдида турган муайян вазифанинг ягона тўғри ечими ҳар доим ҳам мавжуд эмас ва кўпинча атоқли от таржимаси ҳам шундай вазифалардан биридир.

Таржимон таклиф қилаётган таржима варианты учун шахсий жавобгарликни ўз зиммасига олади ва кўпинча бир хил муаммонинг бир нечта мумкин бўлган ечимлари орасида танлов фақат унинг шахсий қобилиятига, маҳоратига ёки муаллифнинг бадиий ниятини тушунишига асосланади. Албатта бундай ҳолларда ҳар қандай бошқа таржимон ҳамкасби танлаган вариантга ўз нуқтаи назаридан туриб рози бўлмаслиги мумкин.

Инглиз ёзувчиси, тилшунос ва таржимон, Оксфорд университети профессори Джон Роналд Руэл Толкиннинг (1892-1973) фэнтези жанридаги “Узуклар ҳукмдори” асари асл инглиз тилидан кўплаб тилларга турли муваффақиятлар билан таржима қилинган. Маълумот ўрнида, ўзбек тилига 2019 йил рус тилидан, В.С. Муравьев ва А.А.Кистяковскийлар таржимасидан Шокир Долимов томонидан таржима қилинган, *Ilm-ziyo-zakovat* ISBN 978-9943-6033-0-1) Немис филологияси бўйича мутахассис Толкин ҳаёлиги даврида унинг ижодини ҳам акс эттирувчи дастлабки таржималарни синчиклаб кўриб чиқади ва ўз фикрини билдиради.

Макс Шухартнинг голландча таржималари ва Аке Олмаркснинг швед тилидаги таржималаридан ҳафсаласи пир бўлган Толкин таржимонларга ёрдам бериш мақсадида 1967-йилда “Узуклар ҳукмдори” китобига “Исмлар бўйича қўлланма” сени ёзади. Толкин вафотидан кейин у Жаред Лобделлнинг “Толкин Компаси” (1975) асарида, ўғли Кристофер Толкин томонидан таҳрирланган ҳолда “Guide to the Names in The Lord of the Rings” “Узуклар ҳукмдори” романидаги исмлар бўйича қўлланма сифатида нашр этилди.

Унинг ёндашуви шундан иборатки, агар шубҳа туғилса, атоқли отни ўзгартмаслик керак ва асл инглиз тилидаги шаклини қолдириш керак:



All names not in the following list should be left entirely unchanged in any language used in translation, except that inflexional -s, -es should be rendered according to the grammar of the language [3].

Қуйидаги рўйхатда бўлмаган барча исмлар таржимада ишлатиладиган ҳар қандай тилда бутунлай ўзгаришсиз қолдирилиши керак, бундан ташқари флектив -s, - es тил грамматикасига мувофиқ кўрсатилиши керак.

Эътиборли жиҳати шундаки асардаги барча исмлар ва номлар ёзувчининг ҳаёлий маҳсули бўлиб, асарда учрайдиган *Dead Marshes* (Ўлик ботқоқликлар) каби номлар Толкиннинг тавсиясига кўра инглиз тилидан тўғридан-тўғри таржима қилиниши мумкин, лекин Эльфлар тилидаги исм ва номлар ўзгаришсиз қолдирилиши керак. Бунга сабаб эльфлар тили Толкин томонидан яралган бўлиб, ундаги исм ва номлар келиб чиқиши инглиз тили бўлмаса-да, инглиз тилида учрамаса-да, унинг ясалиш услуби, шакли ва эвфонияси инглиз “қулоғига” танишдек туюлади.

Ҳозирги босқичда таржимашунослик кўплаб муҳим масалалар билан шуғулланади. Улар орасида ҳар қандай тил луғатининг муҳим қисмини ташкил этувчи атоқли отларни ўрганиш муҳим ўрин тутди. Бизнинг фикримизча, бадий матнда атоқли отларнинг, хусусан антропонимларнинг функцияларини ва уларни бошқа тилга таржима қилиш усулларини, шунингдек таржимада уларнинг стилистик функцияларини сақлаб қолиш усулларини ўрганиш муҳимдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Саломов.Ғ. Таржима назариясига кириш. Университетларнинг филология, журналистика, роман-герман филологияси факультетлари студентлари учун қўлланма. “Ўқитувчи” нашриёти. Тошкент-1978.Б-109.

2. Гарбовский Н.К. Теория перевода. М.: Издательство Московского университета, 2004, с. 269.

3. *A Tolkien Compass*. Edited by Jared Lobdell. 1st Paperback Edition 1975/Open Court/La Salle/ISBN 0875483038 p.201.



**HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILIGA NEOLOGIZMLARNING TA’SIRI,
ISHLATILISH DOIRASI VA QO‘LLANILISHI**

Boymirzayeva Nilufar Anvar qizi,
TerDU o‘zbek filologiyasi sirtqi ta’lim
yo‘nalishi 5-bosqich talabasi
Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi
27-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Телефон:+998938951127
nilufarboymirzayeva8@gmail.com

ANNOTATSIYA:Hozirgi kunda jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo‘lgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar- neologizmlarning kundalik hayotimizda tez-tez ishlatilishi hech kimga sir emas.Ushbu maqolada neologizmlarning hozirgi o‘zbek adabiy tiliga ta’siri, ishlatilish doirasi ,qo‘llanilishi haqida so‘z boradi

KALIT SO‘ZLAR: neologizmlar , rivojlanish , yangi narsa , yangi tushuncha , o‘zbek tili , globallashuv, tashqi manba.

XXI asr O‘zbekiston shiddat va jadallik bilan rivojlanayotgan bir davrdir. Bu rivojlanish ozod yurtimizning har jabhasida , har sohasida o‘zini yaqqol namoyon qilmoqda. Shu jumladan, fan va madaniyat sohasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmayapti. Dunyodagi globallashuv yer yuzidagi har bir tilga yangidan yangi so‘zlar (neologizmlar) kirib borishiga sababchi bo‘lmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bugungi kunda neologizmlardan holi bironta til yo‘q. Ayniqsa jahonda neologizmlarni tarqatish tezligi bo‘yicha birinchi o‘rinda turuvchi ingliz tili boshqa tillarga o‘zidagi so‘zlarning yoyilishi darajasi bilan ham peshqadam bo‘lib kelmoqda. Dunyo miqyosidagi jadal rivojlanish bevosita o‘zbek tiliga ham ta’sir qilmoqda. O‘zbek tilining lug‘at tarkibi neologizmlar hisobiga boyib bormoqda.

Neologizmlar bu – yunoncha neos - “ yangi ” , logos - “ so‘z ” so‘zlarining jamlanmasi bo‘lib, yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so‘z hisoblanadi. Dunyoda boshqa tillardan so‘z olmay ,faqat o‘z ichki imkoniyatlari asosida rivojlanuvchi birorta ham til yo‘qligini hisobga olsak, chetdan yangi so‘zlarning atamalarining kirib elishini to‘g‘ri qabul qilish kerak. Bu holat o‘zbek tili uchun ham tanishdir. Ammo yangi tushunchani o‘z tilimizdagi muqobil so‘zlar bilan ifodalashning iloji bo‘lmagandagina neologizmlarga murojaat qilishimiz to‘g‘ri bo‘ladi. Yangilik bo‘yog‘ini hali yo‘qotmagan bo‘lishiga qaramay , “ noutbuk ” , “ skaner ” , “ diskovod ” , “ bar ” , “ film ” , “ lider ” kabi neologizmlar allaqachon jamiyat hayotiga singishib ketgan . Neologizmlar ilmiy asarlarda shu uslubga xos termin sifatida atash (nominativ) vazifasini bajaradi. Badiiy asarlarda, odatda, uslubiy vazifani bajaradi. Neologizmlarning paydo bo‘lish yo‘llari xilma-xil bo‘lib, ular tilning mavjud lug‘aviy tarkibi va grammatik qonun-qoidalari asosida yangi so‘z yasash yo‘li, shuningdek, mavjud so‘zning lug‘aviy ma’nolaridan birini yangi ma’noda qo‘llash yo‘li bilan va boshqa tildan so‘z qabul qilish orqali hosil qilinadi.

Yangi so‘zlarning oxirgi yillarda ko‘plab o‘zlashtirilishiga bir tomondan iqtisodiy aloqalarning gurkirab rivojlanishi sabab bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ommaviy axborot vositalarining ta’siri ham sezilarli darajada ortib bormoqda.

O‘z navbatida o‘zbek tilidagi “ yonbosh ” , “ chala ” , “ halol ” kabi so‘zlar jahonning barcha tillariga kirib bordi .O‘zbek tili leksikasi jamiyat hayoti uchun keraksiz bo‘lib qolgan tushunchalarni bildiradigan so‘zlarning iste’moldan chiqib ketishi ,yangi paydo bo‘lgan tushunchalarni bildiruvchi so‘zlarning esa kirib kelishi hisobiga o‘zgarib , rivojlanib boradi .

Xulosa o‘rnida shuni aytish mimkinki,tashqi manba hisobiga so‘z qatlamining boyishi - neologizmlar til taraqqiyoti uchun muhimdir.Ammo undan o‘rinli foydalanishimiz , yuqorida ta’kidlanganidek faqat zarurat tufayligina boshqa tillardan yangi so‘zlarni qabul qilishimiz foydali va maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M.Hamroyev, D.Muhamedova,D .SHodmonqulova, X.G‘ulomova.SH.Yo‘ldoshova. Ona tili Toshkent-2007.
- 2.Wikipedia.org sayti.
- 3.Qomus.info sayti



REKLAMA DISKURSINIG SOSIOLINGVISTIK TABIATI

Xolboboyeva Aziza Sherboboyevna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zDJTU, doktorant (DSc)
azizakholboboea@mail.ru
Toshkent, O'zbekiston

ANNOTASIYA: Reklama diskursining sosiolingvistik nuqtai nazardan shakllanishi ijtimoiy, psixologik, lingvistik omillar, shuningdek, jamiyatning madaniy an'analari bilan bog'liqligi mazkur maqolada yoritilgan.

KALIT SO'ZLAR: ijtimoiy mavqe, ijtimoiy tarmoqlar, kontseptual pozitsiya, ijtimoiy xususiyatlari, sosiolingvistik tavsif.

Reklama diskursi matnlarida til taraqqiyotidagi eng muhim tendentsiyalarning boyligi va ifodalanishi tufayli milliy xususiyatning keng qamrovli aks etishi, madaniy tajriba ko'rsatkichi va lingvistik tahlilning qiziqarli ob'ektidir. Bugungi kunda, biz haqli ravishda zamonaviy reklama diskursi yuqori ishontirish-taklif faolligi va sotsial-madaniy yo'nalishga ega bo'lgan ommaviy aloqaning o'ziga xos sohasi ekanligini, tilshunoslikning madaniy tilshunoslik, pragmatolingvistika, diskurs nazariyasi, psixolingvistika, sosialingvistika va boshqalar kabi sohalari ko'plab olimlarini qiziqtirib kelayotganligini e'tirof etish lozim deb o'ylaymiz. Reklama sotsial-madaniy hodisa bo'lganligi sababli, reklama diskursini sosiolingvistik nuqtai nazardan o'rganish juda mantiqiy ko'rinadi, chunki reklama diskursining shakllanishi ijtimoiy, psixologik, lingvistik omillar, shuningdek, jamiyatning madaniy an'analari bilan bog'liq. Binobarin, sosiolingvistika uch sohani-til, jamiyat va madaniyat bilan bog'laydi.

Til vositalariga ijtimoiy baho berish va ommaviy axborot vositalarining turlarini auditoriya xususiyatlariga qarab farqlash jurnalistik uslubning asosiy xususiyatlaridan biridir. Matnlarning lingvistik xususiyatlariga ta'sir qiluvchi muhim omillarga quyidagilar kiradi: ijtimoiy mavqe, yoshi, jinsi, ma'lumoti, kasbi, yashash joyi, aloqa kanali, xabarning maqsadi va xarakteri. “Shaxsning ma'lum bir guruhga, xususan, shaxs oldida muhim obro' va vaznga ega bo'lgan, me'yorlari, qadriyatlar, munosabatlari ma'qullaydigan va baham ko'radigan guruhga mansubligi haqiqiy xatti-harakatlarga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin”. Ijtimoiy tarmoqlar tadqiqotchilari I. N. Bloxin, A. A. Volkov, B. A. Zilbert ham ularni jamiyatni ijtimoiy tartibga solish tizimining bir qismi, ijtimoiy taraqqiyotning integratsiyalashtiruvchi omili sifatida belgilaydilar. Mavjud iqtisodiy vaziyatda adresatning manfaatlar va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olish nashrning mashhurligini oshiradi. Sosiolingvistik tavsifini yaratishda hal qiluvchi omil-adresat omilidir. Matbuotni, reklamani o'rganishga sotsiolingvistik yondashuv nashr tilining auditoriyaning ijtimoiy xususiyatlariga mosligini aniqlash imkonini beradi. Bunday holda, qabul qiluvchi jinsi hal qiluvchi omil bo'ladi. Fanda ommaviy axborot vositalarining sotsial-lingvistik tahlili - bu har xil turdagi nashrlarni tahlil qilish, ularning aniq tarixiy sharoitlarda kontseptual pozitsiyasini, shuningdek, ular mo'ljallangan auditoriyaning ijtimoiy, psixologik va lingvistik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi [1]. Lisakova ta'kidlaganidek, matbuotni o'rganishga sotsiolingvistik yondashuv quyidagi asoslarga asoslanadi: jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishini aks ettiruvchi tilning ijtimoiy tabaqalanishi; jamiyatda turli auditoriyaga yo'naltirilgan va turli ijtimoiy kuchlar va davlat organlarining siyosiy pozitsiyasini ifodalovchi keng ko'lamli ommaviy axborot vositalari tizimining mavjudligi; nashriyotning lingvistik xususiyatlarini ommaviy axborot vositalari tilida majburiy aks ettirish va unga yanada samarali ta'sir qilish uchun ma'lum bir auditoriyaga yo'naltirish [1]. Matbuotning sotsiolingvistik tahlili nashr tili uning ijtimoiy yo'nalishini qanday aks ettirishini, nashr auditoriasining ijtimoiy xususiyatlari uning lingvistik xususiyatlariga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Ushbu yondashuvning ahamiyatini G. Ya. Solganik (2000), A. A. Kunikeeva (2002) ta'kidlaydilar. Matbuotda ma'lum bir ijtimoiy auditoriyaga yo'naltirilganlik mavzu-tematik, kompozitsion-tekst, semantik-stilistik darajalarda namoyon bo'lishi mumkin [1,169]. Zamonaviy ommaviy axborot vositalari ilgari mavjud bo'lgan deyarli barcha janrlarni saqlab qoldi va o'z repertuarini nisbatan yangi janrlar, jumladan, reklama bilan kengaytirdi.

Shaxs muloqot jarayonida ijtimoiy birlik sifatida jamiyatda muayyan qoida va me'yorlarga bo'ysungan holda o'zaro ta'sir qiladi, bu esa o'z navbatida muloqotning o'ziga xos xususiyatlarini



belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillar bilan tartibga solinadi. Shaxs xulq-atvorining stereotipik modeli, uning maqomi, shaxsning ijtimoiy yoki shaxsiy munosabatlar tizimidagi ijtimoiy mavqei tufayli, ijtimoiy rolga mos keladi. Reklama matnlarining tili yangi g'oyalarning paydo bo'lishiga imkon qadar tezroq munosabatda bo'ladi va shu bilan birga ko'pincha o'rnatilgan tasvirlar va metaforalarga murojaat qiladi. Ta'rifga ko'ra, E.I.Sheygal, reklama diskursida “tashkil etilgan ma'lum bir sohaga xos bo'lgan muloqot vaziyatlari (nutq hodisalari), ma'lum bir (cheklangan) aloqa mavzusi bo'yicha ma'lum ijtimoiy rollarni bajarishda nutq xatti-harakatlarining tipik modellari to'g'risidagi g'oya, o'ziga xos niyatlar va nutq strategiyalari. ulardan kelib chiqadi.

Bugungi kunda zamonaviy reklama diskursi shaxs va guruhlarining sotsiolingvistik portretini yaratish usullaridan juda faol foydalanayotganini sezmaslik mumkin emas, ular professional, ijtimoiy mansublik asosida birlashtirilganligi fikrimiz yorqin ifodasidir.

Foydalangan adaboyotlar ro'yhati:

1. Лысакова И. П.(1989). Тип газеты и стиль публикации. Опыт социоллингвистического исследования. Л.
2. Солганик Г. Я. (2000). О новых аспектах изучения языка СМИ // Вестник Москов. ун-та. Сер. 10: Журналистика. № 3. - С. 31-38.
3. Ergasheva G.I.(2018). Turli tizimdagi tillarda genderga oid terminologiyaning shakllanishida lingvistik va ekstralingvistik omillar.Fan dok.diss.avtoreferat . 14 - bet.
4. Kholboboeva Aziza Sherboboevna. (2022). Peculiarities of the Sociolinguistic Approach in Advertising Discourse. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 11, 13–15. Retrieved from <https://www.periodica.org/index.php/journal/article/view/205>

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 7-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.08.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000